

“O‘ztemiryo‘Inazorat” inspeksiyasi bayonoti!

Namangan viloyati Pop tumani “Uyg‘ur” qishlog‘i hududida joylashgan qo‘riqlanadigan temir yo‘l kesishmasida «Damas»ning yuk poyezdi bilan to‘qnashuvi ro‘y bergan. Ma’lumotga ko‘ra, avtomashina svetoforning qizil chirog‘ida harakatlanib, «Qo‘shminor-Pop-2» yo‘nalishi bo‘yicha harakatlanayotgan 3008-sonli yuk poyezdi bilan to‘qnashuv sodir etgan. Yo‘l-transport hodisasi natijasida «Damas» avtomashinasida bo‘lgan 2 nafar fuqaro vafot etgan va 5 nafar fuqaro tan jarohatlari olgan.

So‘nggi paytlarda sodir bo‘layotgan holatlarning navbatdagisi. Qoidalarga bo‘ysunmaslik, shoshmashosharlik va oqibatda fojeali yakun. Negadir, ko‘ngilsizliklarning qayta va qayta takrorlanishi saboq chiqarishimiz uchun yetarli bo‘lmayapti.

Temir yo‘l hududida faqat belgilangan joylardan ehtiyyotkorlik bilan qoidalarga amal qilgan holda o‘tish lozimligini teran his qilib, qoidalarga amal qilmas ekanmiz fojiali holatlarni to‘xtatish imkonsiz. Katta tezlikda harakatlanadigan poyezd to‘satdan to‘xtaganda tormoz uzunligi 1000 – 1200 metr masofaga ba’zan undan ham uzoqroqqa cho‘zilishi bu esa mashinist oldindan ko‘rib qolgan taqdirda ham poyezdni to‘xtata olmasligini anglatadi.

Hurmatli haydovchilar, o‘zingiz va o‘zgalar hayoti uchun mas’ul ekanligingizni aslo unutmang. Qoidalarga amal qiling, temir yo‘l kesishmalarida shoshmashosharlikka aslo yo‘l qo‘ymang!

**Firdavs Xayriddinov
“O‘ztemiryo‘Inazorat” inspeksiyasi
Axborot xizmati boshlig‘i**

«Ўзтемирийўлназорат» инспекцияси баёноти!

Наманган вилояти Поп тумани «Уйғур» қишлоғи худудида жойлашган қўриқланадиган темир йўл кесишинасида «Дамас»нинг юк поезди билан тўқнашуви рўй берган. Маълумотга кўра, автомашина светофорнинг қизил чироғида харакатланиб, «Кўшминор-Поп-2» йўналиши бўйича ҳаракатланаётган 3008-сонли юк поезди билан тўқнашув содир этган. Йўлтранспорт ҳодисаси натижасида «Дамас» автомашинасида бўлган 2 нафар фуқаро вафот этган va 5 нафар фуқаро тан жароҳатлари олган.

Сўнгти пайтларда содир бўлаётган ҳолатларнинг навбатдагиси. Қоидаларга бўйсунмаслик, шошмашошарлик ва оқибатда фожеали якун. Негадир, кўнгилсизликларнинг қайта ва қайта тақрорланиши сабоқ чиқаришимиз учун етарли бўлмаяпти.

Темир йўл худудида фақат белгиланган жойлардан эҳтиёткорлик билан қоидаларга амал қилган ҳолда ўтиш лозимлигини теран ҳис қилиб, қоидаларга амал қилмас эканмиз фожиали ҳолатларни тўхтатиш имконсиз. Катта тезликда ҳаракатланаётган поезд тўсатдан тўхтаганда тормоз узунлиги 1000 – 1200 метр масофага баъзан ундан ҳам узоқроқقا чўзилиши бу эса машинист олдиндан кўриб қолган тақдирда ҳам поездни тўхтата олмаслигини англаради.

Ҳурматли ҳайдовчилар, ўзингиз ва ўзгалар ҳаёти учун масъул эканлигингизни асло унутманг. Қоидаларга амал қилинг, темир йўл кесишиналарида шошмашошарликка асло йўл қўйманг!

**Фирдавс Хайриддинов
«Ўзтемирийўлназорат» инспекцияси
Ахборот хизмати бошлиғи**